

## OGAHY MUXAMMASLARIDA TALMEH SAN'ATINING QO'LLANILISHI

**Mardonova Gulchehra Ulug'bekovna,**  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti  
[mardonovagulchehra.2908@gmail.com](mailto:mardonovagulchehra.2908@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiy muxammaslarida talmeh san'atining qo'llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda talmehning mumtoz she'riyatdagi badiiy-estetik vazifasi, uning mazmuni chuqurlashtirishdagi o'rni hamda obraz yaratishdagi poetik imkoniyatlari yoritilgan. Ogahiy muxammaslaridagi talmehlar shartli ravishda shaxslar va joy nomlari bilan bog'liq guruhlarga ajratilib o'rganilgan. Maqolada payg'ambarlar obrazi tarixiy shaxslar hamda Sharq mumtoz adabiyoti qahramonlari bilan bog'liq talmehlarning poetik-falsafiy mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, Farhod, Majnun, Layli, Nuh, Iso, Sulaymon, Dovud kabi obrazlar hamda Rum, Makka, Dehli, Jayhun, Aras singari makon nomlari orqali shoir ishq, hijron, fanolik, ma'rifat va ruhiy kamolot masalalarini badiiy talqin qilgani asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida Ogahiy talmehni faqat an'anaviy badiiylik sifatida emas, balki lirik kechinmalarni falsafiy-estetik jihatdan boyituvchi poetik vosita darajasiga olib chiqqani aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Rizo Ogahiy, muxammas, talmeh san'ati, mumtoz adabiyot, payg'ambarlar, tarixiy obraz, adabiy qahramon, badiiy mahorat, poetik tafakkur, tasavvufiy talqin.

**Аннотация.** В данной статье анализируются особенности использования искусства талмеха в мухаммасах Мухаммада Ризо Огахи. В исследовании освещаются художественно-эстетические функции талмеха в классической поэзии, его роль в углублении содержания и поэтические возможности в создании образов. Талмехи в мухаммасах Огахи условно разделены на группы, связанные с образами личностей и географическими названиями. В статье раскрывается поэтико-философская сущность талмехов, связанных с образами пророков, исторических личностей и героев классической восточной литературы. Также на основе образов Фархада, Маджнуна, Лейли, Нуха, Исы, Сулаймана, Давуда и таких топонимов, как Рум, Мекка, Дели, Джайхун и Арас, обосновывается художественная интерпретация поэтом тем любви, разлуки, бренности бытия, просвещения и духовного совершенства. В результате исследования установлено, что Огахи рассматривал талмех не только как традиционный художественный прием, но и как поэтическое средство, обогащающее лирические переживания в философско-эстетическом плане.

**Ключевые слова:** Мухаммад Ризо Огахи, мухаммас, искусство талмеха, классическая литература, пророки, исторический образ, литературный герой, художественное мастерство, поэтическое мышление, суфийская интерпретация.

**Abstract.** This article analyzes the peculiarities of the use of allusion (talmeh) in the mukhammas poems of Muhammad Rizo Ogahi. The study examines the artistic and aesthetic functions of talmeh in classical poetry, its role in deepening meaning, and its poetic possibilities in character creation. The allusions in Ogahi's mukhammas are conditionally classified into groups related to personal images and place names. The article reveals the poetic and philosophical essence of allusions connected with prophets, historical figures, and heroes of classical Eastern literature. Furthermore, through the images of Farhad, Majnun, Layli, Nuh, Isa, Sulayman, and Davud, as well as place names such as Rum, Mecca, Delhi, Jayhun, and Aras, the poet's artistic interpretation of love, separation, mortality, enlightenment, and spiritual perfection is substantiated. The study concludes that Ogahi elevated talmeh from a traditional artistic device to a poetic means enriching lyrical experiences with philosophical and aesthetic depth.

**Keywords:** Muhammad Rizo Ogahi, mukhammas, talmeh, classical literature, prophets, historical image, literary hero, artistic mastery, poetic thinking, Sufi interpretation.

**Kirish.** O‘zbek adabiyotida har bir lirik janr ma’lum bir badiiy san’at asosida yuzaga keladi va shakllanadi. Ayniqsa mumtoz adabiyotimizda badiiy san’atlarning o‘rni beqiyos va lirikani yanada sayqallab o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi. Ular orasida talmeh san’atining ham o‘rni ahamiyatlidir. Talmeh san’atining o‘ziga xos xususiyatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu san’at (talmeh-arabcha-ishora qilish, biror narsa tomonga yengil nazar tashlash) badiiy adabiyotdagi tasvir vositalardan biri hisoblanib, mashhur tarixiy voqea, diniy rivoyat, afsona, adabiy qahramon, yoki taniqli shaxsga ishora qilish san’atidir. Talmeh san’atini ma’lum bir voqea yoki shaxs haqida to‘la ma’lumot bermaydi, aksincha unga ishora qiladi. Bundan tashqari, ma’lum shaxs, joy yoki voqea nomi orqali asar mazmuni o‘quvchiga yanada aniq va chuqur yetib boradi, shuningdek, boshqa badiiy san’atlar kabi she’riyatda ta’sirchanlik va ma’nodorlikni kuchaytiradi. Adabiyotshunos olim Atoullloh Husayniy “Badoye’us-sanoye” asarida talmeh haqida shunday fikr bildiradi: “Talmeh ulkim, mashhur qissa yoki voqeaga ishorat qilg‘ay va lafz oz bo‘lsa-da ma’no ko‘p anglatur.”[1]

**Adabiyotlar tahlili.** Ogahiy ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida talmeh san’atining nazariy asoslari, uning mashhur voqea va shaxslarga ishora orqali badiiy ma’no hosil qilishi haqida fikr yuritadi. Atoullloh Husayniy esa “Badoye’us-sanoye” asarida talmehni qisqa lafz orqali keng mazmun ifodalovchi badiiy san’at sifatida izohlaydi. Ogahiy ijodining poetik xususiyatlari Gulnoz Xalliyevaning “Ogahiy musammatlari” nomli tadqiqotida yoritilib, unda shoir musammatlarning janriy tabiati, obrazlar tizimi hamda badiiy mahorati tahlil qilingan. “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni” nomli ilmiy to‘plamda esa shoirning mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni va lirik merosining badiiy-estetik ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Shuningdek, Muhammad Sayid Tantoviyning “Payg‘ambarlar tarixi” asari maqoladagi diniy obrazlar va payg‘ambarlar bilan bog‘liq talmehlarning mazmunini sharhlashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Biroq mavjud tadqiqotlarda Ogahiy muxammaslaridagi talmeh san’ati maxsus tadqiqot obyekti sifatida alohida o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur maqolada talmehlarning poetik-falsafiy vazifasi hamda badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda matniy tahlil, qiyosiy-tahliliy hamda poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, Ogahiy muxammaslaridagi talmeh unsurlari aniqlanib, ular mazmuniga ko‘ra payg‘ambarlar, tarixiy shaxslar, adabiy qahramonlar va joy nomlari bilan bog‘liq guruhlariga ajratildi. Tahlil jarayonida talmehlarning badiiy vazifasi, lirik qahramon ruhiyatini ochishdagi o‘rni hamda tasavvufiy-falsafiy ma’nolari o‘rganildi. Shuningdek, Ogahiy qo‘llagan talmehlarning mumtoz adabiyot an’analari bilan bog‘liqligi qiyosiy asosda yoritildi. Natijada talmeh san’ati shoir ijodida poetik fikrni kuchaytiruvchi muhim badiiy vosita ekanligi aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari.** Ko'pgina ijodkorlar ijodida bo'lgani kabi Muhammadrizo Ogahiy lirikasida, ayniqsa, muxammaslarida ham talmeh san'atini uchratishimiz mumkin. Ogahiy muxammaslarida tasvirlanayotgan va eslatilayotgan mashhur hodisalar hamda qahramonlarning ismlari ifodalanayotgan tasvir bilan yonma-yon beriladi. Buning natijasida shoir aytmoqchi bo'lgan fikr aniqroq, to'laroq, mubolag'aliroq chiqadi.[2] Shartli ravishda Ogahiy muxammaslaridagi talmeh san'atining obyektlarini 2 guruhga bo'lishni lozim topdik:

- 1.Shaxslar vositasida yuzaga kelgan talmeh
- 2.Joy nomlari vositasida yuzaga kelgan talmeh

Shaxs vositasi bilan yuzaga kelgan talmehdagi obrazlar ham 3 guruhga bo'linadi:

- 1.Payg'ambarlar obrazi
2. Sharq mumtoz adabiyoti qahramonlari
- 3.Tarixiy shaxslar obrazi

Payg'ambarlar obrazini talmeh sifatida qo'llash mumtoz adabiyotimizda badiiy ana'ana sifatida davom ettirilgan.Bu obrazlar nafaqat Ogahiy davri, balki Ogahiy davrigacha ham, undan keyingi davrda ham klassik adabiyotda keng qo'llanilgan. Bu obrazlar yordamida ijodkorlar o'quvchiga o'zining ichki kechinmalarini diniy-tasavvufiy yo'l bilan birgalikda ochib bergan.Ogahiy lirikasida, ayniqsa, muxammaslarida ham bu an'anaga rioya qilgan holda payg'ambarlar obrazini talmeh sifatida ko'rishimiz mumkin:

Ranjur hajring nolayi jongoh tortib subh-u shom  
Dorilshifoyi ko'yinga ummid birla ura kom  
Jullobi vaslingni anga ber ,ey hakimi,loyi nom  
Zahri firoqingdin qayu oshiqkim bo'ldi tahli kom  
No'shi visoling yetmasa ,Iso anga topmas davo[3]

Mazkur banddagi talmeh an'anaviy diniy ishoradan tashqari, oshiq ruhiyatining ichki drammatizmini ochuvchi poetik vosita sifatida ham xizmat qilgan. Shoir Iso obrazini oddiy diniy qahramon sifatida emas, balki "ruhiy najot timsoli" darajasida tasvirlaydi. Baytdagi yangicha poetik jihat shundaki, oshiq dardi jismoniy emas, balki ma'naviy-ruhiy iztirob sifatida talqin qilinadi. Shu sababli uni oddiy tabib emas, hatto mo'jiza egasi bo'lgan Iso ham davolay olmaydi. Shoir band davomida "dorilshifo", "hakim", "jullob", "davo" kabi tibbiy tushunchalarni ketma-ket qo'llab, maxsus semantik maydon yaratgan. Natijada visol — shifo, hijron esa kasallik sifatida poetik tizimga kiradi. Iso talmehi ana shu tizimning eng yuqori nuqtasini tashkil qiladi. Chunki mumtoz tafakkurda Iso tiriltiruvchi qudrat egasi sifatida tasavvur qilinadi. Shoir esa bu imkoniyatni ham cheklab qo'yadi: ma'shuqa visolisiz hech qanday najot yo'q. Yana bir muhim jihat shuki, Iso obrazi orqali shoir ilohiy ishqa xos tasavvufiy ma'noni ham yashirin tarzda singdiradi. Tasavvufda haqiqiy visol — ruhning komillikka yetishi demakdir. Hijron esa insonning ma'naviy yetimlik holatini bildiradi. Shu sababli oshiq dardi jismoniy kasallikdan ko'ra chuqurroq mohiyat kasb etadi. "Iso timsoli mumtoz adabiyotda Masih "nafasi jon kirgizuvchi" Ruhulloh

“Allohning ruhi” sifatida talqin etiladi. G‘azaliyotlarda tasvirlangan ma’shuqa sifatlari bilan Masih mo‘jizalaridan ustun turadi, uning lablari Iso kabi oshiqqa jon baxsh etadi”. [4]

Demak, Muhammad Rizo Ogahiy ushbu muxammasida Iso talmehidan foydalanib:

-hijron azobining cheksizligini;

-visolning mutlaq najot ekanini;

-ishqning ruhiy-falsafiy mohiyatini yuksak poetik shaklda ifodalagan.

Kishi gar hukmron o‘lsun jahon ahlig‘a har kunkim

Tarab jomini no‘sh etsun ko‘ngul komicha har tunkim

Bu yanglig‘ umr sursun necha yil yo‘q sud ,nevchunkim

Hayot ichra baqo chun mumkin ermas Nuh bo‘lsunkim

O‘lar holatda tug‘may o‘lgan o‘g‘li birla yaksondir. [3]

Muhammad Rizo Ogahiy mazkur bandda Nuh talmehidan foydalanish orqali umr va fanolik masalasini falsafiy-estetik talqin qiladi. Mumtoz she‘riyatda Nuh obrazi, asosan, nihoyatda uzoq umr timsoli sifatida qo‘llansa, Ogahiy bu an‘anaviy ma‘noni yangicha poetik kontekstda rivojlantiradi. Shoir uchun umrning uzunligi mutlaq qadriyat emas; aksincha, inson taqdirining mohiyati uning yashash muddati bilan emas, foniylilik oldidagi o‘jizligi bilan belgilanadi. Shoirning poetik mahorati shundaki, u Nuh obrazini ulug‘lash uchun emas, balki umrning nisbiy va o‘tkinchi mohiyatini ochish uchun qo‘llaydi. Band tarkibidagi “hukmron”, “tarab”, “jom”, “kom”, “umr”, “baqo” singari birliklar dunyoviy saodat manzarasini hosil qiladi. Ammo talmeh ayni shu estetik qatlamni inkor etuvchi falsafiy yakun vazifasini bajaradi. Natijada baytda tashqi shukuh bilan ontologik fanolik o‘rtasidagi qarama-qarshilik yuzaga chiqadi. Mazkur talmehning yana bir muhim jihati — unda tasavvufiy mushohada unsurlarining sezilishidir. Tasavvuf tafakkurida dunyo ne‘matlari vaqtinchalik, haqiqiy baqo esa ilohiy haqiqat bilan bog‘liq deb qaraladi. Shoirning Nuh talmehiga murojaati ham insonni dunyoviy zavqlarga mutlaq qadriyat sifatida qaramaslikka undovchi ma‘naviy-falsafiy mazmunni yuzaga chiqaradi.

Qasd etsa jallodi ajal gar har kishining jonig‘a

Boqmas oning yuz hiyla-yu ming rev ila dostonig‘a

Gar ismi ismi a‘zamni o‘qub kirsu Ali qalqonig‘a

Hoyil bo‘lo olmoq emas mumkin ajal paykonig‘a

Dovud qilg‘on javshanni kiysa Sulaymon ustina [3]

Baytdagi muhim talmeh — “Dovud qilg‘on javshan” birikmasidir. Rivoyatlarga ko‘ra, payg‘ambar Dovud temirni qo‘lida mumdek eritish mo‘jizasiga ega bo‘lib, eng mustahkam sovutlarni yasagan. “Javshan” so‘zi aynan jangovar sovut ma‘nosini bildiradi. Shoir ushbu tarixiy-diniy detalni tilga olib, eng qudratli himoya vositasi ham ajal hukmiga qarshi tura olmasligini uqtiradi. Bu yerda talmeh mubolag‘a bilan uyg‘unlashib, poetik ta’sirchanlikni oshirgan.

“Sulaymon” obrazi ham Qur’oniy talmeh sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Hazrat Sulaymon sharq adabiyotida saltanat, qudrat va hukmronlik timsoli hisoblanadi. Rivoyatlarga ko‘ra, unga nafaqat insonlar, balki jinlar, qushlar va shamollar ham bo‘ysungan. Shoir ana shunday mutlaq hokimiyat egasi bo‘lgan Sulaymon ham Dovud yasagan sovutni kiyganda ham ajalning hukmidan qochib qutula olmasligini tasvirlaydi. Bu talmeh orqali dunyoviy saltanat va ilohiy taqdir qarama-qarshiligi ochib beriladi. Bundan tashqari aynan shu misralarda payg‘ambarlar bilan bir qatorda tarixiy shaxs obrazi ham namoyon bo‘ladi. “Ali qalqoni” ifodasi esa hazrat Ali obraziga daxldor talmehdir. Islom manbalarida Ali jasorat, mardlik va ilohiy himmat timsoli sifatida tasvirlanadi. Uning qalqoni va qilichi bilan bog‘liq rivoyatlar xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz she‘riyatda keng tarqalgan. Shoir Ali qalqonini mutlaq himoya vositasi sifatida tilga olsada, ajal qarshisida bu qalqon ham ojiz ekanligini ko‘rsatadi. Natijada talmeh vositasida inson qudratining chegaralanganligi g‘oyasi yuzaga chiqadi. Bundan tashqari, Ogahiy muxammaslarida tarixiy obrazlardan Faridun obrazini ham ko‘rishimiz mumkin:

Necha yillar chekib hijron aro yuz ming g‘am-u mehnat

Ko‘zida yosh ,tilida nola ,ko‘nglida tuman kulfat

Bu holat ichra nogah yuz qo‘yub oning sori davlat

Agar xud vasl iqboli muyassar bo‘lsa bir soat

Faridun taxt uzra bazm tuzdi ,jomi Jam chekdi[3]

Baytdagi “Faridun taxti” obrazi qadimgi eroniy mifologik qatlam bilan bog‘liq talmeh hisoblanadi. Sharq manbalarida Faridun adolat va saodat hukmdori sifatida tasvirlanib, uning nomi ko‘pincha zafarga erishish hamda baxtli saltanat ramzi sifatida tilga olinadi. Shoir visol onini Faridun taxtiga qiyoslash orqali oshiqning ruhiy holatini nihoyatda yuksak darajada ko‘rsatadi. Bu o‘rinda talmeh oshiq qalbidagi quvonchning oddiy hissiy holat emas, balki podshohona shukuhga teng ruhiy ko‘tarilish ekanini anglatadi. “Jomi Jam” timsoli ham mumtoz she‘riyatdagi eng faol qo‘llangan talmehlardan biridir. Jamshid bilan bog‘liq rivoyatlarda ushbu jom olam hodisalarini aks ettiruvchi, yashirin haqiqatlarni namoyon qiluvchi sehrli qadah sifatida talqin etiladi. Adabiy an’anada u ko‘pincha komillik, ma’rifat va mutlaq huzur ramzi vazifasini bajaradi. Baytda “jomi Jam chekdi” ifodasi oshiqning visoldan hosil bo‘lgan mastona ruhiy holatini ifodalash bilan birga, uning armonlardan forig‘ bo‘lganini ham anglatadi. Demak, talmeh bu yerda faqat bezak unsur emas, balki ichki kechinmani ramziy shaklda ochib beruvchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘lgan.

Ishq ichra gahi ko‘h-u, gah dasht sari chopib

Har g‘am toshikim otti charx, oldim oni qopib

Maydoni fano kirdim, umrim yuzini yopib,

Bir oh ila kul bo‘ldim, ey charx, tilab topib

Farhod ila Majnuna‘a oshiqlik ishin o‘rgat[3]

So‘nggi misrada qo‘llangan “Farhod” talmehi sharq epik an‘analaridagi fidoyi oshiq obraziga ishora qiladi. Adabiy manbalarda Farhod muhabbat yo‘lida tog‘larni teshib, mashaqqatlarni yenggan qahramon sifatida tasvirlanadi. Shoir ushbu timsol orqali o‘z oshig‘ining sabr va matonatini yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi. Bu yerda talmeh ishq yo‘lidagi azoblarni ulug‘lash vazifasini bajaradi. “Majnun” obrazi esa ishq sabab dunyodan uzilgan, ruhiy jihatdan butunlay muhabbatga taslim bo‘lgan oshiq timsolidir. Mumtoz she‘riyatda Majnun nomi cheksiz sadoqat va telbalik darajasidagi muhabbat bilan bog‘lanadi. Baytda Farhod va Majnun nomlarining yonma-yon qo‘llanishi oshiq holatini ikki xil jihatdan ochadi: biri — mashaqqat va kurash, ikkinchisi — ruhiy iztirob va ma‘naviy junun.

Junun dardi g‘ami xayli boshim uzra g‘uluv aylab  
Kezarman ishq sahrosin tun-u kun hoy-hu aylab  
Bu holimni ko‘rub mehr-u vafo rasmini hu aylab  
Kel,ey Laylivashimkim,bazmi vasling orzu aylab  
Balo dashtida kezgan oshiqi Majnun shioringman.[3]

Mazkur baytda talmeh san‘ati oshiqning ruhiy kechinmalarini chuqurlashtirish va ishqning inson ruhiyatiga ko‘rsatgan ta‘sirini obrazli ifodalash uchun qo‘llangan. Baytning markaziy talmehi “Majnun” obrazi bilan bog‘liq bo‘lib, u mumtoz sharq adabiyotida ilohiy va majoziy ishqning eng mashhur timsollaridan biri sifatida talqin etiladi. Shoir ushbu obrazga murojaat qilish orqali lirik qahramon holatini an‘naviy oshiq tipiga bog‘laydi, biroq uni shunchaki takrorlamaydi, balki yangi ruhiy talqin bilan boyitadi. “Laylivash” so‘zi ham bevosita talmeh xarakteriga ega. Bu yerda ma‘shuqa Layliga qiyos qilinmoqda. Ma‘lumki, Layli obrazi sharq she‘riyatida go‘zallik va yetishib bo‘lmas muhabbat timsoli hisoblanadi. Shoir ma‘shuqani “Laylivash” deb atash orqali uni oddiy yor darajasidan chiqarib, afsonaviy husn egasi sifatida gavdalantiradi. Natijada oshiqning dardi ham odatiy muhabbat emas, balki mumtoz ishq an‘analariga xos ulkan ruhiy iztirob darajasiga ko‘tariladi.

Bo‘ldi sarf avqotim dahrga xalq aro har yon  
O‘tdi muddati umrim hazl ila bo‘lib xandon  
Emdi o‘z g‘aming ichra aylagil mani giryon  
Ko‘zlarim yoshin ishqing ichra oqizib har yon  
Birni aylagil Jayhun,birni qil Aras,yo rab.[3]

Ogahiy muxammaslarida shaxslar bilan bir qatorda joy nomlari ham e‘tiborga molikdir. “Jayhun” qadimiy manbalarda Amudaryo nomi bilan mashhur bo‘lgan yirik daryo hisoblanadi. Sharq adabiyotida u ko‘pincha cheksizlik, jo‘shqinlik va seroblik ramzi sifatida tilga olinadi. “Aras” esa Kavkaz hududidagi mashhur daryo nomi bo‘lib, mumtoz she‘riyatda ko‘pincha ayriliq, hijron yoki kuchli oqim timsolida qo‘llanadi. Shoir ko‘z yoshlarini ana shu ikki ulkan daryoga qiyoslash orqali iztirob miqyosini nihoyatda kuchaytiradi.

Kom topmog‘ay bo‘lg‘ay ilmidin fuzun jahli

Har nechaki sayr etsa Rum-u Makka-yu Dehli  
Bas ulum ashkolin lutf ila qilib sahli  
Ogahiy so‘zin shirin o‘yla qilki ,so‘z ahli  
Davrida hujum etsun,o‘ylakim magas,yo rab[3]

“Rum” sharq mumtoz adabiyotida ilm-fan, madaniyat va saltanat markazlaridan biri sifatida tilga olinadi. Ayniqsa, Usmonli davri bilan bog‘liq holda u yuksak tamaddun ramziga aylangan. “Makka” esa islom olamining muqaddas maskani bo‘lib, diniy kamolot va ruhiy poklanish timsolidir. “Dehli” nomi esa sharq ilmiy-adabiy muhiti, ayniqsa forsiy va turkiy adabiyot ravnaq topgan markazlardan biri sifatida mashhur. Shoir ushbu uch makonni ketma-ket tilga olib, inson dunyoning eng mashhur ilm va madaniyat markazlarini kezman taqdirda ham, agar ichki idrok va ma‘rifat bo‘lmasa, jaholatdan xalos bo‘la olmasligini ta‘kidlaydi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Ogahiy ijodida boshqa badiiy san‘atlar singari talmeh san‘atining ham o‘rni beqiyosdir. Bu san‘at orqali ijodkor o‘z maqsadini ma‘lum shaxs yoki joylar yordamida aniq yetkazib ochib bera olgan desak,mubolag‘a bo‘lmaydi. Ijodkor bir qator payg‘ambarlar, tarixiy obrazlar, joy nomlari va adabiy obrazlardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanib o‘z asarlarini yanada jozibali yaratgan va uning bu asarlari nafaqat o‘z davri adabiyotida, balki mumtoz adabiyotda ham betakror o‘ringa ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a.-T.: Xazina, 1996. 225 b
2. Gulnoz Xalliyeva. Ogahiy musammatlari.-T.: Mumtoz so‘z,2019.160 b
3. Ogahiy. Asarlar. 2-jild.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.418 b
4. Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni. Respublika ilmiy-nazariy materiallari to‘plami.- T.: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2020. 265 b
5. Muhammad Sayid Tantoviy. Payg‘ambarlar tarixi. 2-jild-T.:Matbaachi, 2023.334 b.
6. [www.google.uz](http://www.google.uz)
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)